



BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARNING XUSUSIYATLARI

Badalova Nigora Qahhor qizi

*Termiz davlat pedagogika instituti. Pedagogika va san'at fakulteti texnologik ta'lim
yònalishi talabasi*

Annotatsiya: *Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarolarining ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiladi. Shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi bu esa òsib kelayotgan yosh avlodda shakllanishi kerak bòlgan asosiyxususiyatlardan biridir. Bu maqolada men har bir òqituvchi òz zimmasiga kelajak avlodni komillikka yetuklikka yetishishida kòmakdosh bòlar ekan demak ularning avvalo òzlari ham ma'nan ham ruhan kamol topgan bòlishlari kerak deb bilaman. Shu qatorida yosh avlodni tògri ta'lim olishlari ularni intellektual salohiyatlari yanada oshishi va kelajakda vatanimiz va vatanimiz kelajagi yana ham buyuk bòlishi uchun xizmat qiladigan bòlib yetishishida ta'lim tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim samarasi, kun tartibi, bilim, kònikma.*

Ma'rifatga intilish-xalqimizning azaliy fazilatlaridan biri, Farzandlarimizni bilimdon, irodasi baquvvat, iymoni mustahkam qilib voyaga yetkazish, milliy istiqlol g'oyasini ular qalbi va ongiga singdirish, yot va zararli g'oyalar ta'siridan saqlash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng asosiy vazifamizdan hisoblanadi. Har qanday insonning, ayniqsa o'qituvchining, avvalo bolalarga bo'lgan mehri, fidoiyligi, izlanuvchanligi, kuchli bilim va salohiyati bo'lmasa, ishda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Bilim borliqning bir nusxasi bo'lmasdan, u shaxs tomonidan shakllantiriladi. Inson umri mobaynida ko'plab maktablarni o'taydi. Bular ichida eng muhimi hayot maktabidir. Hayot maktabiga avvalambor yo'llanmani, bilimni maktab beradi. Har bir insonning kelajakda kim bo'lishi ko'p jihatdan ana shu maktabda olgan ta'lim-tarbiyasiga ham bog'liqdir. Bunda maktabdagi ilk uztozlarning o'rni alohida. Maktabga ilk bor qadam qo'ygan o'quvchilar bilan ishlashning o'ziga xos tomonlari bor. Chunki, birinchi sinfga qabul qilingan bolalar maktabga tayyorgarlik darajalari, o'qishga munosabatlari bilan bir-biridan farq qiladilar. Bu esa ta'lim-tarbiya ishlarini uyushtirishda bir qator qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Boshlang'ich sinflar dasturida har bir o'quvchiga yil davomida beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarga nisbatan talablar aniq belgilab qo'yilgan. Bu esa o'quvchilarga puxta bilim berish va ularni ongli qilib tarbiyalashda o'quvchilar mas'uliyatini oshiradi. Ayniqsa, 1-sinf o'quvchisiga kunlik rejim juda ham zarur bo'lib, ular maktabga ko'nikma hosil qilgunlaricha tez zerikib qoladilar. Bundayvaqtlarda o'qituvchi eng avvalo, ota-onalar





hamkorligini yo'lga qo'yib, birgalikda ish olib borsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun ota-onalar tomonidan o'quvchining kunlik rejimini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Sinfdagi qobiliyati, dunyoqarashi, ongi turlicha bo'lgan o'quvchilarga o'qituvchining birdek tushuntirishlari o'quvchilarga turlicha singadi va ular har xil o'zlashtiradilar, natijada ko'p o'tmay bo'sh o'zlashtiruvchilar guruhi ko'zga tashlanib qoladi. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar, yaxshi o'zlashtiruvchilardan orqada qolishni istamaganlari holda yaxshi o'zlashtirishga qobiliyatlari yetmaydi. Bunday o'quvchilar o'ziga xos pedagogik yordamga muhtoj bo'ladilar. Bunday paytda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda qo'shimcha darslarning ahamiyati kattadir. Qo'shimcha darslarda ham o'quvchilar bilimni mashq qildirish uchun o'qituvchilardan katta mahorat talab etiladi. O'qituvchi o'quvchi bilan muloqotga kirishar ekan, har doim uning imkoniyatlari doirasida ish tutishi kerak. Dastlabki o'quv soatlaridan boshlab bolani o'qish va yozishni o'rganishga ruhan tayyorlash, panja muskullarining rivojlanishiga, ularda diqqatni barqarorlashtirishga, eshitish va ko'rish qobiliyatini tarbiyalash va xotirasini mustahkamlash kabi muhim talablarni amalga oshirish kerak. Birinchi sinfdan kelgan kichikintoylar uzoq vaqt jim o'tira olmaydilar, ular asosiy mashg'uloti o'yin bo'lgan joy uy yoki bog'chadan kelganlar. Ularni birdaniga o'yindan mahrum qilib bo'lmaydi. Shuning uchun biz bolalarni o'yin orqali tarbiyalashimiz kerak. Chunki bolalar o'yinda o'zaro munosabatga kirishadilar, natijada ularning xulq-atvoriva muomala madaniyatida ijobiy sifatlar tarkib topa boradi. Bunday o'yinlar o'quvchilardagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlashga, ularni tuzatish chora-tadbirlarini belgilab olishga imkon beradi. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilimli bo'lishlarida ularning berilgan topshiriqlarni fikrlab bajarishlari orqali dunyoqarashlarini rivojlantirishda fanga qo'yilgan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni singdirishda muhim omil bo'ladi. Bugungi yoshlarni bilimli, salohiyatli, har tomonlama yetuk shaxs bo'lib shakllanishida faqatgina o'qituvchining kasbiy mahorati va bilimi yetarli bo'lmaydi. Bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish uchun ota-onalar ham mas'uldirlar. Ma'lumki maktab yoshidagi bolalar ota-onasiga juda ko'p savollar bilan murojaat qilishadi. Juda ko'p holatlarda ota-onalar farzandlarining savollarini javobsiz qoldirishadi. Shunday holatlar aksariyat hollarda bolaning dunyoni anglashga, chuqur bilim olishga bo'lgan qiziqishini chegaralab qo'yadi yoki umuman so'ndiradi. Vaholangki atrofdagi voqeahodisalarni farzandi bilan muhokama qilish, munosabat bildirishga o'rgatish, yaxshi va yomon degan tushunchalarni bolalikning ilk qadamlaridan singdirib borish har bir ota-onaning farzandi oldidagi burchidir. Bugungi kunda ko'pgina ota-onalarning ish bilan bandligi yoki ijtimoiy tarmoqlarga makkasidan ketganligi farzandlarining ta'lim tarbiyasiga bee'tiborlik holatiga olib kelmoqda. Ba'zan ota-onalar farzandlarining bo'sh o'zlashtirishida hech ikkilanmay o'qituvchini ayblash holatlari ham uchrab turishi hech kimga sir emas. Mamlakatimizning kelajagi yoshlar qo'lida ekan, ularni buyuk ajdodlarimizga munosib avlodlar qilib tarbiyalash, kuchli bilim va salohiyat egasi qilib voyaga yetkazish bugungi kun o'qituvchisining oliy maqsadi bo'lmog'i lozim.





Shunday ekan, har bir o'qituvchi tinimsiz kasbiy mahorati va bilim darajasini oshirib borishi, zamon bilan hamnafas qadam tashlashi, fan va ta'lim sohasidagi yangiliklar bilan tanishib borishi, innovatsion texnologiyalarini o'z o'rnida qo'llay olishi, axborot texnologiya vositalaridan foydalana olishi talab etiladi. Shundagina biz ko'zlangan maqsadimizga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuchi, TIMa'naviyatl, 2008.
2. Yo_idoshev J.G, Usmonov S. Ilg orpedagogiktexnologiyalar -T.: O_qituvchi, 2004.
3. L. Mòminova Maxsus Pedagogika Toshkent 2016-yil.
4. Pedagogika nazaryasi
5. www.ziyonet.uz.
6. www.pedagog.uz

